

## O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o'qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Tillarni o'rganishda til ta'limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish hamda

**Kalit so'zlar:** tamoyil, lekik-grammatik, vosita, nutq, interferensiya, metod, innovatsiya.

Hozirgi kunda o'zbek tilini o'qitish tamoyillari, o'quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida qo'llanadigan mashqlar va topshiriqlar, ularning tarkibi va turlarini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim mashg'ulotlariga moslashtirib qo'llash yo'llarini topish o'zbek tili ta'limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun mavjud mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik, pedagogik tadqiqotlar natijalari asosida yuzaga kelgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida ko'rib chiqish va aynan ikkinchi til ta'limiga xos bo'lgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Amaliy tajribalar natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi til ta'limida o'zbek tilidan mashqlarni tuzishda:

- umumdidaktik tamoyilning tanish hodisadan notanishga o'tish, mashqlar va topshiriqlarni bosqichdan bosqichga murakkablashtirib borish, ya'ni terma gaplardan bog'lanishli matnlarga, tayyor mashqlardan ijodiy mashqlarga o'tib borish tamoyiliga amal qilish;
- faol va nofaol leksik-grammatik materiallarni mustahkamlab borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish, matnlar bo'yicha berilgan topshiriqlarda avvalgi mashqlar, matnlarga ham murojaat qilib borish;
- mashqlarning kommunikativ va nokommunikativ turlaridan o'z o'rnila va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;
- o'quvchi-talabalarning bilim darajasini, o'quvchilarning yoshi va ona tili, shuningdek, ta'lim yo'nalishi xususiyatini hisobga olish;
- guruhsda turli til vakillarining borligini e'tiborga olgan holda darsliklarda mashqlarni imkon boricha ko'proq berish orqali tabaqlashtirilgan ta'limni joriy etish va o'quvchilarning har biriga o'z kuchi darajasidagi mashqlarni bajartirishga erishish;
- o'quvchilarning ijodiy faolligini va mustaqil fikrlashlarini amalga oshirish uchun tarjima mashqlaridan keng foydalanish;
- o'quvchilar nutqidagi ona tilining salbiy ta'sirini
- interferensiyanı bartaraf etishga qaratilgan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Afsuski, o'zbek tili ta'limida qo'llanadigan mashqlar va topshiriqlarni osondan qiyinda tamoyilida bosqichma bosqich rivojlantirib borish, talabalarni nutqqa olib chiquvchi, so'zlardan so'z birikmasi, ulardan gap va jumlalar, ulardan bog'lanishli matnlar tuzishga olib chiqishga, matn qismlarini mantiqiy bog'lashga yo'naltirilgan tizimlashtirilgan mashqlardan foydalanish, shu yo'nalishda bosqichli ketma-ketlikdagi mashq va

topshiriqlarni ishlab chiqish masalasi bugungi kungacha muammoligicha qolmoqda. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda o'quvchi-talabalarning yoshi, til xususiyati, bilim darajasi, ta'lif yo'naliшини e'tiborga olish, qaysi bosqichda, kimga, qanday mashq va topshiriqlarni berishning konseptual asoslarini ishlab chiqish ilmiy metodik jihatdan tadqiq qilinmagani ta'lif samaradorligiga erishishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Demak, o'quv-biluv topshiriqlarini bosqichli ketma-ketlikda bajartirish orqaligina o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni tarkib topdirishga, ular orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga erishish mumkin bo'ladi. "O'zbek tili"ni o'qitishda ta'lif samaradorligiga erishish mazkur fan o'qituvchilaridan o'quv-biluv topshiriqlarining ushbu bosqichli ketma-ketligini ta'minlashdan iborat ko'p qirrali faoliyatni, yuqori darajadagi metodik layoqatni ham talab etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: 2012 . – B. 65.
2. Adilova S., Norimova G., Quvondiqova I., Mirazizov A., Yunusova Sh. O'zbek tili (metodik qo'llanma). – T.: TDPU, 2016.
3. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasiy va metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – B. 432.
4. Дадабоев Х.А, Тилшунослик назарияси ва метадологияси. – Т.: 2004
5. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. -T.: "Fan" nashriyoti, 2008.
6. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi –T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004. – B. 44.
8. Йўлдошев Р. Узлуксиз ўзбек тили таълимида функционал-семантик ёндашувнинг татбиқига доир // Узлуксиз таълим. – Т.: 2008. – 5-сон. – 20–24 б.
9. Muhamedova S. va boshq. O'zbek tili va adabiyoti ta'limalda zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
10. Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўзга тиллар вакилларига ўқитишида орфоэпик талаффуз меъёрларини шакллантириш / Ўзбекистон халқаро ислом академияси республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 2020 йил, 19 октябрь. – Тошкент, Ўз ХИА, 2020. – 118–122-б.